

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KARIMOV ASROR AKBAROVICH**

**HARAKATDAGI TRANSPORT VOSITALARINI FOTO VA VIDEO QAYD**  
**ETISH ORQALI MASOFAVIY MONITORING QILISH TIZIMINI**  
**TADQIQ ETISH HAMDA ISHLAB CHIQISH**

05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va qurilmalari.  
Mobil, tola-optik aloqa tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Karimov Asror Akbarovich**

Harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini tadqiq etish hamda ishlab chiqish..... 3

**Каримов Асрор Акбарович**

Исследование и разработка системы дистанционного мониторинга движущихся транспортных средств с помощью фото-видео фиксации..... 23

**Karimov Asror Akbarovich**

Research and development of a remote monitoring system for moving vehicles using photo and video recording..... 44

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 48

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KARIMOV ASROR AKBAROVICH**

**HARAKATDAGI TRANSPORT VOSITALARINI FOTO VA VIDEO QAYD**  
**ETISH ORQALI MASOFAVIY MONITORING QILISH TIZIMINI**  
**TADQIQ ETISH HAMDA ISHLAB CHIQISH**

05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va qurilmalari.  
Mobil, tola-optik aloqa tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5538 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

|                            |  |
|----------------------------|--|
| <b>Ilmiy rahbar:</b>       | <b>Nosirov Xabibullo Xikmatullo o'g'li</b><br>texnika fanlari doktori, dotsent   |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Aliyev Ravshan Maratovich</b><br>texnika fanlari doktori, professor<br><b>Yarmuxamedov Alisher Agbarovich</b><br>texnika fanlari nomzodi, professor |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti</b>   |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "  1  ".  11  . soat   10<sup>00</sup>   dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15; e-mail: [info@tuit.uz](mailto:info@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (  372   – raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "  21  "   10   da tarqatildi.

(2025 yil "  21  "   10   dagi   12   - raqamli reestr bayonnomasi).

**B.Sh. Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**M.S. Saitkamolov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**D.A. Davronbekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KARIMOV ASROR AKBAROVICH**

**HARAKATDAGI TRANSPORT VOSITALARINI FOTO VA VIDEO QAYD**  
**ETISH ORQALI MASOFAVIY MONITORING QILISH TIZIMINI**  
**TADQIQ ETISH HAMDA ISHLAB CHIQISH**

05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va qurilmalari.  
Mobil, tola-optik aloqa tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

## **KIRISH (texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda global miqyosda eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, transport vositalari hamda ularning bevosita ishtirokida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, inson hayotini asrash bilan bir qatorda, transport vositalari bilan bog'liq noqonuniy faoliyatlar – o'g'rilik, noqonuniy tashish, terrorchilik hamda boshqa yuqori xavf tug'diruvchi jinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish masalasi jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Xitoy, Yaponiya davlatlarida foto va video qayd etishga asoslangan masofaviy monitoring tizimlari samaradorligi tufayli 1650 dan ziyod transportga oid jinoyatlar aniqlanib, yo'l-transport hodisalari soni 15–25%, jinoyatlar darajasi o'rtacha 30%, transport bilan bog'liq jinoyatlar esa 20% ga kamaygan. Shunga qaramay, har yili dunyo bo'ylab 1,19 million kishi yo'l-transport hodisalari natijasida hayotdan ko'z yumib, 50 milliondan ortiq fuqaro turli darajadagi jarohatlar olmoqda<sup>1</sup>. Mazkur holatlarni oldini olishda transport vositalarini davlat raqam belgisiga bog'liq bo'lmagan holda yuqori aniqlikda avtomatik identifikatsiya qilish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda raqamli intellektual texnologiyalar keng joriy etilmoqda. "Aqli shahar" va "Xavfsiz shahar" konsepsiyalarini rivojlantirish doirasida chuqur neyron tarmoqlar yordamida transport vositalarini avtomatik aniqlash, foto va video qayd etishga asoslangan monitoring algoritmlarini samaradorligini oshirish hamda texnik vositalar yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, yo'l-transport hodisalari hamda ular bilan bog'liq jinoyatlarni real vaqt rejimida aniqlash va ularga tezkor javob berish imkoniyatlari yetarli darajada hamda to'liq joriy etilmaganligi sababli, sun'iy intellekt algoritmlarining aniqligi, samaradorligini oshirishga, transport vositalarini yuqori aniqlikda real vaqt rejimida kuzatish va identifikatsiya qilishga, shuningdek, ma'lumotlarni tezkor, ishonchli uzatish hamda qayta ishlash imkonini beruvchi yuqori imkoniyatga ega apparat-dasturiy tizimlarni yaratish va takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlovchi texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda intellektual tizimlarni joriy etish, orqali huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, ularni "issiq iz"ida aniqlash hamda fuqarolar uchun xavfsiz va qulay transport muhitini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu yo'nalish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, «... Prezident qaroriga muvofiq, yo'l harakati xavfsizligini oshirish va jinoyatlarni real vaqt rejimida aniqlashga xizmat qiluvchi "RTF" (Road Traffic Fines) — intellektual foto-videokuzatuv tizimi, "AutoID" — avtomobil

---

<sup>1</sup> Jahonda sog'liqni saqlash tashkilotining 2024-yil uchun yo'l-transport hodisalari bo'yicha statistik ma'lumotlari.

raqamlarini avtomatik aniqlash tizimi hamda boshqa zamonaviy raqamli platformalarni bosqichma-bosqich joriy qilish»<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, "Xavfsiz shahar" kompleksini kengaytirish va aqlli qurilmalar hamda avtomatlashtirilgan tahlil algoritmlarini joriy etish, yo'l-transport jarayonida inson omilini kamaytirib, hodisalarni real vaqt rejimida aniq va tezkor aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda axborot texnologiyalarini keng joriy etish va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini qo'llash, transport bilan bog'liq sodir etilayotgan jinoyatlarni real vaqt rejimida aniqlash va ularga tezkor choralar ko'rish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 28-sentyabrdagi "Xavfsiz shahar" yagona integratsiyalashgan tizimlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbir to'g'risida"gi PQ-318-son, 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-son, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 48-son Qarori shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV - "Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mazkur yo'nalishda jahondagi yetakchi ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli kompaniyalar tomonidan keng miqyosda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlarida radiotexnika va radionavigatsiya tizimlariga asoslangan transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, AQShdagi MIT Kompyuter fanlari va sun'iy intellekt laboratoriyasi, Stenford universiteti AI tadqiqot markazi, Kanadadagi Toronto universitetining Vektor instituti, Buyuk Britaniyadagi DeepMind, Germaniyadagi Max Plank Informatika instituti, Fransiyadagi Raqamli fan va texnologiyalar milliy instituti, Shveysariyadagi ETH Zurich, Xitoydagi Baidu AI va Huawei AI markazi, Yaponiyaning Milliy Informatika instituti, Hindiston Texnologiya instituti hamda Janubiy Koreyadagi Samsung AI markazi ushbu sohalarda yetakchi ilmiy ishlanmalarni olib bormoqda.

O'zbekistonda ham bu boradagi ilmiy izlanishlar jadal olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Sun'iy intellekt markazi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, IT Park

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PQ-318-son qarori bilan tasdiqlangan Respublikada "Xavfsiz shahar" yagona integratsiyalashgan tizimlarini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi

kabi milliy ilmiy markazlar yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, transport oqimlarini samarali boshqarish hamda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishida faol tadqiqotlar olib bormoqda.

Shuningdek, mamlakatimizning taniqli olimlari — Yu. Pisetskiy, Sh.N. Fayzimatov, A.E. Sotvoldiyevlar avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish va foto - video qayd qurilmalaridan olingan ma‘lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini takomillashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar. I. Umirov, Q.X. Azizov va A.A. Karimov esa telekommunikatsiya va radar tizimlari orqali yo‘l tarmog‘ining o‘tkazuvchanligini oshirishda intellektual va telematik yechimlardan foydalanish istiqbollari o‘rganib chiqqanlar.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda sun‘iy intellekt texnologiyalarini foto-video qayd etish tizimlariga samarali joriy etish uchun radiotexnik vositalar, dasturiy ta‘minot va boshqaruv algoritmlarining uyg‘un ishlashi muhimligi bilan birga, mahalliy texnik va dasturiy yechimlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani bu yo‘nalishda milliy mahsulotlar yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-3516/001-001 — ERASMUS+ dasturining 586292-EPP-1-2017-1-PL-EPPKA2-CBHE-JP “Intelligent Transport Systems: New ICT-based Master’s Curricula for Uzbekistan (INTRAS)” (“Intellektual transport tizimlari: AKT ga asoslangan O‘zbekiston uchun yangi Magistratura dasturi”), mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Harakatdagi transport vositalarini real vaqtda aniqlash, kuzatish hamda foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini ishlab chiqish, shuningdek, sun‘iy intellekt algoritmlari asosida ma‘lumotlarni qayta ishlovchi apparat-dasturiy kompleksni yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

harakatdagi transport vositalarini tahlili asosida avtomatlashtirilgan foto-video qayd etish tizimi bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilish;

harakatdagi transport vositalarini real vaqt rejimida foto va video ma‘lumotlar asosida transport vositalarining tashqi vizual belgilariga asoslangan avtomatik identifikatsiya algoritmi ishlab chiqish;

radiotexnik qurilma bilan integratsiyalangan harakatdagi transport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni masofadan turib yig‘ish, dastlabki tahlil qilish va markaziy serverga uzatishni ta‘minlovchi radiotexnik qurilmaning arxitekturasi ishlab chiqildi hamda funksional jihatdan takomillashtirish;

harakatdagi transport vositalarini masofadan monitoring qilish tizimida tasvirni real vaqtda sun‘iy intellekt orqali qayta ishlovchi modulni foto-video qayd etish vositalari bilan texnologik integratsiyalash usuli ishlab chiqish;

harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilishni ta‘minlovchi radiotexnik qurilma va avtomobillar tarixi moduli ma‘lumotlarini tahlil qilishga asoslangan kompleks axborot tizimi ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** - yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellektga asoslangan transport vositalari tarixini kuzatish va tahlil qilish axborot tizimi.

**Tadqiqotning predmeti** harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimi doirasida transport vositalarining rangi, turi va modelini neyron tarmoqlar va sun'iy intellekt yordamida identifikatsiya qilish texnologiyalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada belgilangan vazifalarni yechish uchun tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil, harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimiga ishlov berishning zamonaviy usullari, chuqur o'rganish, ehtimollik nazariyasi, matematik tahlil, algoritmlash, tuzilmali dasturlash texnologiyasi, hisoblash, sinovlardan o'tkazish va induksiya usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

harakatdagi transport vositalarini real vaqt rejimida identifikatsiya qilishda davlat raqami belgisiga bog'liq bo'lmagan xolda foto va video ma'lumotlarning tashqi parametrlari ya'ni kuzov rangi, turi, rusumi hamda modelni avtomatik aniqlash imkonini beruvchi algoritm ilk marotaba milliy sharoit uchun taklif qilingan;

radiotexnik qurilma bilan integratsiyalangan harakatdagi transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni masofadan yig'ish hamda markaziy tizimga uzatishni ta'minlovchi tashqi parametrlarni kiritish asosidagi apparat-dasturiy model yangilangan arxitektura va milliy infratuzilma bilan takomillashtirilgan;

harakatdagi transport vositalarini masofadan monitoring qilish tizimi uchun foto va video qayd etish vositalarida olingan tasvirlarni real vaqt rejimida o'rnatilgan neyron tarmoq asosida qayta ishlovchi usuli yuqori ishonchlilik, optimal samaradorlik bilan takomillashtirilgan;

harakatdagi transport vositalarining kuzov rangi, turi, rusumi va modeli foto va video qayd etish asosida masofaviy monitoring qilishni ta'minlovchi apparat-dasturiy kompleksi hamda mavjud avtomobillar tarixi moduli bilan integratsiyalashgan axborot tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Adaptiv tizimni yaratishda dasturiy-texnik vositadan optimal foydalanish usuli va foto-video qayd etish qurilmalarini, ulardan olinayotgan tasvirlar asosida transport vositalarini aniqlash, tasniflash va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatiga ega dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Transport vositalarini aniqlashda rangi, turi, rusumi va modelini avtomatik tanib olish va aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish, uzatish samaradorligini oshiruvchi intellektual qurilma uchun apparat-dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi.** Taklif etilgan usul va algoritmlar yaratilgan apparat-dasturiy vosita orqali sinovdan o'tkazilib, amaliy natijalar bilan tasdiqlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar ishonchli manbalarga asoslanib, matematik-statistik tahlillar bilan chuqur o'rganildi. Ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilib, ularning samaradorligi vakolatli

idoralar tomonidan tasdiqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati foto - video qayd etish vositalaridan kelgan tasvir axborotlarni to'plash, qayta ishlash qurilmasining uzluksiz real vaqt rejimida ishlashini ta'minlashi orqali tizimining ishlash ishonchliligini oshirish, transport vositalarining harakatini kuzatish va bashoratlash usuli, matematik hisoblashlarga asoslanganligi hamda ishlab chiqilgan model (qurilma)ni anglab olish, tanib olish va ajratib olish, boshqa shunga o'xshash jarayonlarni tadqiq etishda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini tadqiq etish hamda ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

harakatdagi transport vositalarini real vaqt rejimida identifikatsiya qilishda davlat raqami belgisiga bog'liq bo'lmagan xolda foto va video ma'lumotlarning tashqi parametrlari ya'ni kuzov rangi, turi, rusumi hamda modelni avtomatik aniqlash imkonini beruvchi algoritm dasturiy ta'minot "SMART BASE" MChJda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyuldagi 33-8/4841-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qiluvchi radiotexnik qurilma bilan bog'lash mezonlariga ko'ra, yuqori aniqlik ko'rsatkichlariga ega bo'lib, rang bo'yicha 92,5%, turi bo'yicha 92,5%, rusumi bo'yicha 91%, modeli bo'yicha esa 34,2%ni tashkil etgan. Ushbu natijalar transport vositalarini identifikatsiya qilish jarayonida tizimning texnik va analitik samaradorligini sezilarli darajada oshishi aniqlangan;

radiotexnik qurilma bilan integratsiya qilingan holda harakatdagi transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni masofaviy tarzda yig'ish va ularni markaziy tizimga uzatishni ta'minlovchi, tashqi parametrlarga asoslangan takomillashtirilgan apparat-dasturiy model hamda uning bog'liq texnologiyalari "Telecom sot" MCHJ amaliyotida samarali joriy etildi. Ishlab chiqilgan usul va algoritmlar asosida avtomobil yo'llarida maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari o'rnatish va ulardan foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lib, mazkur jarayon "Telecom sot" MCHJ tomonidan amalda harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish vositasida masofaviy monitoring qilish tizimi nafaqat transport bilan bog'liq turli huquqbuzarlik va jinoyatlarni tez va samarali aniqlash, balki yo'qolgan avtomashinalarni topish, xavfli vaziyatlarni oldindan prognoz qilish hamda transport vositalari harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini ta'minlaydi. (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyuldagi 33-8/4841-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan tizim orqali ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish tezligi 0,2 foizga oshirilib, axborot almashinuvi jarayonlarida yuqori barqarorlik, ishonchlilik va uzluksizlik darajasi ta'minlandi. Bu esa transport monitoringi sohasida milliy infratuzilmani zamonaviy raqamli yechimlar bilan uyg'un holda rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy va amaliy asos yaratib berdi;

harakatdagi transport vositalarini masofadan monitoring qilish tizimi uchun foto va video qayd etish vositalarida olingan tasvirlarni real vaqt

rejimidaoʻrnatilgan neyron tarmoq asosida qayta ishlovchi usuli orqali takomillashtirilgan algoritim “UNICON.UZ” MChJ tomonidan tasvirni sunʼiy intellekt asosida qayta tiklash loyihasida hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan xalqaro standartlarni milliyashtirish jarayonida asosiy manba sifatida qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyuldagi 33-8/4841-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, mazkur algoritim inson omilisiz baholashni taʼminlaydi va jarima qarorlarining 98,7 foiz xatosiz shakllanishiga erishildi, bu esa bedarak yoʻqolgan, qidiruvdagi yoki jinoyatda gumon qilingan transport vositalarni aniqlash imkonini beragan;

harakatdagi transport vositalarining kuzov rangi, turi, rusumi va modeli foto va video qayd etish asosida masofaviy monitoring qilishni taʼminlovchi apparat-dasturiy kompleksi hamda mavjud avtomobillar tarixi moduli bilan integratsiyalashgan axborot tizimi, jamoat tartibini saqlash va jamoat tartibiga koʻmaklashish markazida amaliy tatbiq etilishi bilan bir qatorda, “Xavfsiz shahar” yagona integratsiyalangan tizimlarini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi doirasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllari, (Toshkent shahar IIB YHXBga qarashli) “A.Temur–Xurshida” va “A.Temur–Moyqoʻrgʻon” koʻcha chorrahalarda IIV “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi tomondan amaliyotga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyuldagi 33-8/4841-sonli va IIV JXD YHXXning 2025-yil 8-may, 24/11-5436-sonli maʼlumotnomalari). Natijada, transport vositalarini davlat raqamidan tashqari qoʻshimcha identifikatsiya parametrlariga asoslanib aniqlash darajasi 3,8 foizga oshgan va tizim texnik, huquqiy hamda amaliy jihatdan ilgʻor yechim sifatida eʼtirof etilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotlar natijalari 8 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Tadqiqotlar mavzusi boʻyicha jami 27 ta ilmiy ishlar, ulardan 7 ta maqolalar Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 2 ta xorijiy, 5 ta respublika miqyosidagi jurnallarda, shuningdek, 5 ta tezis xalqaro va 5 ta tezis respublika ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etilgan, hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalar uchun guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa bilan 120 betni, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat, umumiy hajmi 154 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlangan. Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishiga mosligi koʻrsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinish holati, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Yo‘l o‘tkazuvchanligini tahlili asosida avtomatlashtirilgan foto-video qayd etish tizimlari bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilish” deb nomlangan birinchi bobi, uch paragrafdan iborat bo‘lib, ushbu bobda dissertatsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga oid sun‘iy intellekt asosida moslashuvchan axborot tizimi yaratishdagi “Harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini tadqiq etish hamda ishlab chiqish” haqida bo‘lib, unda tadqiqotchi olimlarning fikr va mulohazalari chuqur o‘rganilgan.

Aqlli shahar konsepsiyasining rivojlanishida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xususan, foto-video qayd etish tizimlari va aqlli kameralar yo‘l harakatida transport vositalarini aniqlash, nazorat qilish, va shahar infratuzilmasini samarali boshqarish o‘rganilgan.

Dissertatsiya ishining obyektiv va texnik komponentiga ko‘ra, yo‘l harakati monitoringi va intellektual foto va video qayd etish tizimlarning integratsiyalashgan tizimlarini joriy etish yo‘l harakati monitoringi shuningdek, transport vositasining rangi, turi, rusumini aniqlashda tizimlar tahlili hamda usullari ko‘rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning “Transport vositalarining rangi, turi, modeli va rusumini avtomatik aniqlash algoritmini ishlab chiqish” deb nomlangan ikkinchi bobi harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini tadqiq etish hamda ishlab chiqilgan bo‘lib, uning texnologik yechimlari, texnik xususiyatlari va nazorat qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Taklif etilgan model transport vositalarini davlat raqam belgilaridan mustaqil ravishda aniqlashga qaratilgan bo‘lib, avtomobilning rangi, turi, rusumi va boshqa tashqi ko‘rsatkichlarini avtomatik ravishda tanib olishga imkonini bergan.



1-rasm Transport vositalarining rangi, turi, modeli va rusumini avtomatik aniqlash algoritmi va vizualizatsiya blok-sxemasi


Ushbu bobning 2.1-bo‘limda yo‘l tarmog‘ida sun‘iy intellektga asoslangan moslashuvchi kompleksni o‘qitish, shuningdek, bashorat qilish uchun qurilmani o‘qitish algoritmlarining bir nechta turlari muhokama qilingan va 1-rasmda ko‘rsatilgandek taqqoslashdan nazorat qilinadigan, nazoratsiz, yarim nazoratli va mustahkamlangan avtomatik o‘qitish modellari tahlil qilingan hamda ulardan eng samaralisi (aniqlikligi) tanlangan.

1-jadval

Neyron tarmoqlari modellarining formulasi

| Model               | Formula  |     |
|---------------------|--|-----|
| Liney regressiya    | $y = \beta_0 + \beta_1x_1 + \beta_2x_2 + \dots + \beta_nx_n + \varepsilon$ | (1) |
| Logistik regressiya | $p(X) = e^{(\beta_0 + \beta_1X)} / (1 + e^{(\beta_0 + \beta_1X)})$         | (2) |
| Neyron tarmoqlari   | Oddiy perseptron uchun: $y = f(\sum w_i * x_i + b)$                        | (3) |

Ushbu bobning 2.2-bo‘limda samarali sun‘iy intellekt tahlilini amalga oshirish maqsadida konvolyutsion neyron tarmog‘i asosida tasvir va video ma’lumotlarini qayta ishlovchi maxsus algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu neyron tarmoq transport vositalarini aniqlash, ularning harakat yo‘nalishini kuzatish va boshqarish vazifalarida qo‘llanilib, yuqori aniqlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi (2-rasm).



2-rasm. Sun‘iy intellekt yordamida avtomobilning identifikatsiya qilinish.

Taklif etilayotgan usulda tasvirlar asosida tahlil jarayoni amalga oshiriladi, bunda muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus hudud ajratiladi. Ushbu hudud doirasida transport vositasining turi va rangi aniqlanadi hamda avtomobilni identifikatsiya qilish usuli qo‘llanildi.


Turli xil shovqin manbalari mavjudligi sababli olingan tasvirlar uchun tasvir sifatini yaxshilash uchun quyidagi algoritmlari (4) va (5) asosida yechim qo‘llangan.

$$I(x) = J(x)t(x) + A(1 - T(x)) \quad (4)$$

Bu yerda: I- buzilgan tasvir; J - buzilishidan oldingi asl tasvir; A - yorug'lik; t - kamera ga etib kelgan yorug'lik ulushini ifodalash; J (x) tasvirning bir qismi yo'qolishi; J (x) t (x) signal.

$$J(x) = (I(x) - A)/(maks(t(x),t_0)) + A \quad (5)$$

Bu yerda: tenglamada yorug'ligini taxmin qilish orqali tasvirni (J) hosil qiladi va qorong'i kanal yordamida (A) tasvirni baholanishi hamda (t) uzatishishi ko'rsatilgan.



3-rasm. Ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish usuli

Ushbu bobning 2.3-paragrafida o'z-o'zini tashkil etuvchi neyron tarmog'i trayektoriyalari bo'limlarida transport vositalarining aniqlash uchun o'qitildi va bitta transport vositasi misolida 20 xil burchakdan ko'rsatildi. Tizim uni eslab qoladi, u ma'lumotlar to'plamiga kiritilgan 21-variantni ko'rganida, (3-rasm misolida) neyron tarmoq hali ham bu element transport vositasi aynan "Lacetti" ekanligi va shu elementga juda o'xshashligini tushundi hamda bunday element namunasini aniq ko'rganligi sababli, "Oq" rangli "yngil" turdagi, "Chevrolet" modelida "Lacetti" transport vositasi degan xulosaga keldi.

2-jadval

Transport vositalarini kamera orqali aniqlash natijalari uch bosqichli baholash o'lchovi yordamida amalga oshiriladi:

| Klassifikator turi   | Trening namunasi bo'yicha |        |          | Sinov to'plamida |        |          |
|--|---------------------------|--------|----------|------------------|--------|----------|
|  | Aniqlik                   | To'liq | O'lchovi | Aniqlik          | To'liq | O'lchovi |
| Old va orqa ko'rinishdagi TV (ijobiy tasvirlar soni – 3800, salbiy tasvirlar – 5700)               |                           |        |          |                  |        |          |
| Geometrik noto'g'ri musbat filtrlash yordamida bitta kaskaddan foydalanish                         | 1.0                       | 0.9684 | 0.9839   | 0.9311           | 0.8856 | 0.9078   |
| TV larni ixtiyoriy burchakdan tanib olish (ijobiy tasvirlar soni – 6000, salbiy tasvirlar – 16000) |                           |        |          |                  |        |          |
| Noto'g'ri musbat filtrdan foydalanmasdan, ikki bosqichdan foydalanish                              | 0,8005                    | 0,6971 | 0,7453   | 0,7720           | 0,7309 | 0,7509   |
| Ikki kaskaddan foydalanish, kuzatuvdagi noto'g'ri signal filtrini qo'llash                         | 0,8570                    | 0,6910 | 0,7650   | 0,8530           | 0,6560 | 0,7420   |

Transport vositalarini tasvir orqali kuzov turini va modelini, yuk mashinalari kabinasini ajratish hamda rangini aniqlash algoritmini quyidagicha tenglama orqali ifodalab olamiz:

Tasvirni kadrğa olish va transport vositalarini ajratib olish;

Transport vositalarini tasvir orqali kuzov turini va modelini, yuk mashinalari kabinasini ajratish hamda rangini aniqlash algoritmi formulalar asosida belgilanadi.

Tasvirni kadrğa olish va transport vositalarini ajratib olish:

$$I(x, y) \in \mathbb{R}^{M*N*C}, \quad P(c|x) = \frac{P(x|c)P(c)}{H(x)} \quad (6)$$

Bu yerda:  $I(x, y)$  – tasvirning piksel koordinatalari,  $\mathbb{R}^{M*N*C}$  – tasvirning o'lchami,  $C$  – rang kanallari soni va  $P(c|x)$  – transport tasviri mavjud bo'lish ehtimolligi,  $P(x|c)$  – model aniqlagan ehtimollik.

Kuzov turini va modelini bashoratlash:

$$y = f(Wx + b), \quad P(y_i) = \frac{e^{z_i}}{\sum_j e^z} \quad (7)$$


Bu yerda:  $y$  – bashorat qilingan natija,  $W$  – vaznlar,  $x$  – kirish tasvir vektori,  $b$  – parametr,  $f$  – aktivatsiya funksiyasi.

Yuk mashinalari uchun kabina va rangini aniqlash ajratish:

$$S(x, y) = \sum_{i=1}^n \alpha_i * \phi_i(x, y), \quad D_{KL}(P|Q) = \sum_i P(i) \log \frac{P(i)}{Q(i)} \quad (8)$$


Bu yerda:  $S(x, y)$  – segmentatsiya xaritasi,  $\phi_i(x, y)$  – filtrlar va  $D_{KL}(P|Q)$  – ikki taqsimot orasidagi farq,  $P(i)$  va  $Q(i)$  – mos ravishda tanib olingan va ma'lumotlar bazasidagi ranglar taqsimoti.

Transport vositalarini avtomatik aniqlash samaradorligini yanada oshirish maqsadida mavjud algoritm asosida qo'shimcha neyron tarmoq modellari takomillashtirildi. Ayniqsa, tungi sharoitda aniqlikni saqlab qolish va past yoritilgan holatlarda ham barqaror ishlash imkonini ta'minlash uchun modelning sezuvchanligi kuchaytirildi. (4-rasm) Shuningdek, tasvir sifati va obyektning turli burchaklardan tanib olish algoritmlarining moslashuvchanligi oshirildi, bu esa aniqlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qildi.




4-rasm. Algoritm ishlashi va ma'lumotlar to'plamidan namuna

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Ma’lumotlarni yig‘ish va uzatish radiotexnik qurilmasini ishlab chiqilgan algoritmlar asosida takomillashtirish” harakatdagi transport vositalarini masofadan kuzatish, ularni aniqlash va bashorat qilish imkonini beruvchi zamonaviy monitoring tizimini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Bunda Jetson Nano platformasi va yuqori aniqlikdagi kameralardan foydalanilgan bo‘lib, ular yordamida transport vositasining rangi, turi, rusumi va boshqa muhim belgilarini aniqlash imkoniyati yaratilgan. Sun’iy intellekt algoritmlari asosida tizim real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, ularni markaziy serverga uzatish va tahlil qilish funksiyalarini bajaradi. Shuningdek, ushbu bobning 3.1-paragrafida radiotexnik qurilmani ishlab chiqish va uni takomillashtirishning muhim bosqichlari, shuningdek, transport oqimini kuzatish va qidiruvdagi avtomobillarni aniqlashga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot tanlash jarayoni bayon etilgan. Taklif etilgan intellektual tizim avtomobillarning vizual xususiyatlarini (rang, tur, rusum) tahlil qilishda samarali vosita sifatida baholangan (5-rasm).




5-rasm. Taklif etilgan qurilmaning modelida qo‘llanilgan moduli.

Ishlab chiqilgan algoritmlar qurilmaning hajmini ixchamlashtirish, sun’iy intellekt asosida ishlash samaradorligini oshirish va hisoblash jarayonlarini tezlashtirishga yo‘naltirilgan. Qurilma parallel dasturlash va hisoblash arxitekturasi asosida qurilgani sababli, u ma’lumotlarni qayta ishlashda ko‘p oqimli hisob-kitoblarni samarali bajara oladi. Qo‘shimcha xotira ajratilishi hisobiga ma’lumot uzatish tezligi 0,2% ga oshdi. Asosiy natijalarni serverga yuborish orqali tarmoq yuklamasi kamaydi, qurilmaning real vaqt rejimida mustaqil ishlashi esa barqarorlikni ta’minladi (6-rasm)



6-rasm. Tizim sxemasi.


Ushbu bobning 3.2-paragrafida harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimida ma'lumotlarni to'plash va uzatish tamoyillarini ishlab chiqilgan bo'lib, transport vositalari haqidagi ma'lumotlarni bashorat qilish qurilmasidan olingan ma'lumotlarni yig'ish va uzatish jarayoni yoritilgan.



7-rasm. Markaziy serverning ma'lumotlarini yig'ish va uzatish jarayoni.

3.3-algoritmga muvofiq, foydalanuvchi transport vositasining rangi, turi, modeli va kuzatuv muddati kabi parametrlarni kiritgach, tizim tanlangan hudud (respublika, viloyat, shahar yoki tuman) bo'yicha IP kameralar orqali so'rov yuboradi. Mahalliy serverdagi video log fayllari asosida belgilangan vaqt oralig'idagi tasvirlar olinib, transport vositasi turi, rusumi, rangi va markasi bo'yicha aniqlanadi. Tizimda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yoki bojxonadan o'tgan barcha avtomobillar harakati daqiqalikdan yillik kesimgacha tahlil qilinadi (7-rasm).


Masofaviy serverda qurilma tomonidan yuborilgan ma'lumotlarni (transport vositasining umumiy ma'lumot signali) monitoringi 8-rasmda ko'rsatilgan.



8-rasm. Ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot qurilma orqali optimallashtirish.

Jetson Nano va foto-video qayd etish qurilmalari orqali yuborilgan ma'lumotlar serverda kuzatilib, qurilmaning holati, kuzatuv zonasidan o'tgan transport vositasining turi, rusumi, rangi va modeli kabi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Masalan, jigarrang qidiruvdagi transport vositasiga tegishli ekanligi haqidagi signalni bildiradi. Raqamli ko'rsatkichlar 91 dan 97,4 foizgacha bo'lib, transport vositasining aniqligi foizda ifodalangan. Ynada aniqlikni oshirish maqsadida 3 ta Jetson Nano moduli o'rnatilgan bo'lib, ularning natijalari o'rtacha qilib hisoblablangan.



9-rasm. Qurilmadan yuborilgan ma'lumotlarni serverda namoyish etilishi.

Ushbu bobning 3.3-paragrafda ma'lumotlarni yig'ish va uzatish bo'yicha radiotexnik qurilmaning ishlab chiqilgan algoritmlar asosida takomillashtirilgan holati va uning samaradorligi tahlil qilinadi. Tizimning apparat va dasturiy ta'minot komponentlari texnik talablar asosida baholanib, sinovdan o'tkazildi. "Harakatdagi transport vositalarini foto va video qayd etish orqali masofaviy monitoring qilish tizimini tadqiq etish hamda ishlab chiqish" jarayonida O'zDSt 3064 standarti hamda tegishli texnologik hujjatlarga mos tizim yaratish mexanizmi ishlab chiqildi. Transport vositalarining rangi, turi, rusumi va modeli bo'yicha aniqlik darajasini baholashda o'rtacha kvadratik xatolik (MSE) ko'rsatkichi qo'llanilib, har bir parametr uchun haqiqiy va bashorat qilingan qiymatlar orasidagi farqlar kvadrati (9) asosida tahlil amalga oshirildi.

$$MSE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2 \quad (9)$$

Bu jarayonda rang aniqlashda yorug'lik va kameraning sifatiga bog'liq xatoliklar, model va rusumni tanib olishda esa neyron tarmoqlarning aniqlik darajasi tahlil qilindi. Har bir parametr bo'yicha MSE qiymatlari solishtirilib, qaysi xususiyatda aniqlik yuqori yoki xatolik ko'proq ekani aniqlandi.

Transport vositasining rangi, turi, modeli va rusumi bo'yicha ildiz osti o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE) aniqlash va solishtirish jarayonida har bir parametr bo'yicha haqiqiy va bashorat qilingan qiymatlar orasidagi farq kvadrati hisoblanib, (10) formula asosida ularning o'rtachasi ildiz ostiga olindi.

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2} \quad (10)$$

Bu jarayonda: Rang aniqlashda yorug'lik, kamera sifati va ob-havo sharoitlari xatolikka ta'sir qilishi, model va rusum tanib olishda neyron tarmoqlarning aniqlik darajasi va o'rgatilgan ma'lumotlar sifati muhim rol o'ynashi ko'zda tutildi.

RMSE past bo'lsa model aniq ishladi va RMSE yuqori bo'lsa tizimni yaxshilash zarurligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, qaysi xususiyatda aniqlik yuqori yoki xatolik ko'proq ekani aniqlandi.

Shuningdek eng yuqori signal-shovqin nisbati (SNR - Signal-to-Noise Ratio) transport vositalarining rangi, turi, modeli va rusumini aniqlashda muhim omillardan biridir. SNR signal kuchining shovqin kuchiga nisbati bo'lib, quyidagi (11) formula orqali hisoblanadi:

$$SNR = 10 \log_{10} \left( \frac{P_{signal}}{P_{yoq.sig}} \right) (dB) \quad (11)$$

Bu yerda:  $P_{signal}$  – foydali signal energiyasi (masalan, transport vositasining haqiqiy tasviri).  $P_{yoq.sig}$  – tasvir yoki signalga ta'sir qiluvchi shovqin (yorug'lik shovqini, kamera sensorining xatolari va boshqa tashqi omillar).

SNR qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik aniq tasvir olinadi va transport vositasining rangi, turi, modeli va rusumini aniqlashda xatolik kamayadi. Shovqin omillarini kamaytirish orqali SNR oshirilsa, transport vositalarini tanib olish tizimining samaradorligi oshdi.

